

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**

**AL XORAZMIY NOMIDAGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



**FILOLOGIYA FAKULTETI  
302-O`ZBEK TILI GURUHI TALABASI  
XUDAYBERGANOVA MAHLIYONING  
ARUZ NAZARIYASI FANIDAN  
“NAVOIY LIRIKASIDA MUTLAQ QOFIYA  
TURLARI”  
MAVZUSIDA YOZGAN  
REFERATI**

**URGANCH – 2016**

# **Mavzu: Navoiy lirikasida mutlaq qofiya turlari.**

Reja:

## **I.KIRISH.**

1.1 She'r tuzilishida qofiyaning o`rni va o`rganilish tarixi.

## **II. ASOSIY QISM.**

2.1. Qofiya tiplari va turlari.

2.2. Mutlaq qofiya va uning Navoiy ijodida qo`llanilishi.

2.3. Navoiy "Xamsa"sida mutlaq qofiya turlari.

## **III. XULOSA.**

## **IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

Ma'lumki, qofiya she'riy asarlarda badiiyatning asosiy qirralaridan biri hisoblanib qolgan. Zero, she'riy asarlarning salohiyati ularda qo'llangan g'oyalar mazmun-mohiyati, timsollar qiyofasini ochishdagi ahamiyati, qofiyalarning ma'naviy teranligi, ohangdorligi va jozibadorligi bilan belgilangan. Qofiyaning xilma – xil turlaridan va san'atlaridan, vazn va qofiya munosabatlaridan mahorat bilan foydalanish asarning o'qimishililigini va ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Qofiya va she'riy san'atlar haqida juda ko'p bahs va munozaralar bayon etilgan, o'nlab ilmiy asarlar yaratilgan. Mumtoz adabiyotimizda yuzdan ziyod ma'naviy, lafziy va mushtarak xarakterdagi badiiy san'atlar mavjud. Ular asosan she'riy asarlar tarkibida ko'proq qo'llaniladi.

Bizga yaxshi ma'lumki, she'rning umumiy strukturasi va qofiya bilan bog'liq poetik usullarning eng qadimiylaridan biri radd ul – qofiya yoki ito deb ataladi. Ito haqidagi mulohazalar Sakkokiyning “Miftohul - ulum”, Shamsiddin Muhammad ibn Qaysi Roziyning “Al – mo'jam fi maori ash'or ul - Ajam” (1218-1233 yillar) Nasriddin Tusiyning (vaf.072/1275/74) “Me'yor ul – ash'or”, Kamoliddin Xusayn Voiz Koshifiyning “Badoe` ul afkor fi sanoe` ul – ash'or” (1489 yillargacha yozilgan) asarlarida uchraydi.

Qofiya turli xalqlarda turlicha mavqe'ga ega. Masalan, fransuz, italyan, ingliz, yoki rus poeziyasini olaylik, ularda albatta qofiyali va qofiyasiz she'rlarni uchratamiz. Sharq xalqlari poeziyasiga kelsak, bularda she'r qofiyasiz bo'lmagan. Arablar yo'lidan borgan forslar va suriyalilar ham she'rlari qofiyasiz bo'lmagan.

Alilsher Navoiy “Muhokamatul – lug'atayn” asarida lug'at boyligi jihatidan o'zbek tilining fors tilidan ustunligini ifodalab, lafzlari ko'pligi, iboralari katta imkoniyatlarga egaligini ko'rsatib, fors tilidagi she'r san'atlarining hammasi va badiiy ifodalarini qo'llashda o'zbek tilining (turkiy) hech bir kamchiligi yo'qligini yozib, o'zbek poeziyasida qofiya xususida bir qancha imkoniyatlar borligini ko'rsatib beradi.

Qadimdan arablar, forslar va o'zbeklar tomonidan ishlatib kelingan qofiya turlari 36 ta bo'lsa ham, bundan 16 tasi ma'lum emas. Qolgan 20 xil qofiyalarning

namunalari o'zbek mumtoz poeziyasi namunalarida va o'zbek xalq og'zaki ijodida qo'llanib kelingan.

Qofiya arab – fors poetikasida qadimdan mustaqil soha bo'lgan va uning maxsus nazariyasi yaratilgan. Bu nazariya Shams ad–din Muhammad ibn Qays Ar-Roziyning “Fors poeziyasining o'lchovlari lug'ati” va Abdurahmon Jomiyning “Qofiyalar risolasi” asarida, akademik I.Yu. Krachkovskiyning arab poeziyasiga oid tadqiqotlarida, B.Siriusning “Tojik poeziyasida qofiya” nomli asarlarida bayon etilgan. V.M.Jirmunskiy o'zining “Qofiya, uning tarixi va nazariyasi” nomli kitobida rus qofiyasini sillabik, sillabik – tonik va tonik singari rus she'r tizimlari bilan bog'lagan holda o'rganish lozimligini alohida ta'kidlagan edi.

To she'r vujudga kelgunga qadar ham kishilar o'zaro aloqa qilgani hammaga ma'lum. Ular o'z nutqlarining ravon chiqishi va musiqiy eshivilishi hamda kishilar diqqatini kuchliroq jalb etish uchun sajni kashf qilganlar. Keyinchalik inson tafakkuri o'lchovi nutqni – she'rni kashf etgach, sajning ikki turini (mutavoziy, mutarraf) misralar oxirida qo'lladi va shu turdan qofiya kelib chiqdi va qofiya mustaqil rivojlandi.

Qofiya she'r ritmi va musiqiylikini ta'minlaydi. U ritmiklik va ohangdoshlikdan tashqari, yana bir nechta vazifani bajaradi. Ana shu vazifalardan biri qofiyaning she'r g'oyaviy mazmuni bilan bog'liqligidir. Shu bois u she'r mazmunini go'zal va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Qofiyada odatda she'r g'oyasini tashuvchi so'zlarni misraning she'rxon diqqatini o'ziga tortadigan o'rniga (ko'pincha oxiriga) joylashtirish taqozo etiladi. Shu bilan birga qofiya badiiy takt vazifasini ham bajaradi. Badiiy takt esa she'r g'oyasining ta'sirchan va jozibali ifodalanishiga ko'mak beradi. Qofiyaning yana bir vazifasi she'r qurilishida kompozitsion uyushtiruvchilikdan iborat, chunki u misralarni uyg'unlik, ohangdorlik bilan bir-biriga ulaydi, bog'laydi, bayt yoki band kabi she'riy birliklarni tashkil etadi. Qofiyaning vazifalaridan yana biri shundaki, u she'r intonatsiyasini (ohangdorligini) yuzaga keltiradi. She'rning poetik mazmuni, undagi so'zlar

ohangdorligi, ritmi, vazni, band tuzilishi bilan uzviy bog'liqlikda o'zining intonatsion vazifasini bajaradi. Qofiya ritmik vazifa ham bajaradi. Bunday qofiyalar she'rda radif bo'lmagan hollarda misralar so'ngi (chegarasi)ni ta'kidlab, izchil ritmik qatorlarni tashkil etishda yetakchi vazifani ado etadi.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodida qofiyaning oddiy so'z takroridan tortib mukammal mustaqil turlarigacha bo'lgan shakllari uchraydi.

Umuman, o'zbek og'zaki va yozma adabiyotida qofiyaning vujudga kelishida saj' muhim o'rin tutadi. Bunga turkiy xalqlarning ko'plab og'zaki ijod turlarida, urxun-yenisey yodnomalarida, 11-asrda Mahmud Koshg'ariy tomonidan yaratilgan "Devonu lug'otit turk" asarida uchrovchi she'riy parchalardagi qofiyalar misol bo'la oladi.

Arablar istilosidan keyin turkiy xalqlar she'riyatiga ham aruz she'riy tizimi kirib keladi. 9—10-asrlarda esa arab, fors va boshqa xalqlar she'riyatida mumtoz qofiya nazariyasi yaratiladi. Bu nazariya monorim (fransuzcha *topoite* — yagona qofiya) qofiya yoki tovushlar uyg'unligiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, qofiya yagona tovush (harf) takroriga asoslanadi va bu harf raviy (arab. — qofiyadagi undosh tovush) deb ataladi. Raviy so'z o'zagi, yasama so'zlarda negiz oxiridagi undosh, cho'ziq unli, ba'zan esa qisqa unlilarning aynan takrorlanishi tufayli yuzaga keladi. Masalan, "gul-bul-bul" so'zlaridagi "l", "tortar-ortar" so'zlaridagi oxirgi "r", "vafo-jafo" so'zlaridagi "o", "bahona-zamona" so'zlaridagi oxirgi "a" tovush-harflari raviy hisoblanadi. Mazkur nazariya talablariga ko'ra, raviysiz qofiya vujudga kelmaydi.

Mumtoz qofiya nazariyasida qofiyalanuvchi so'zlar tarkibiga qarab raviydan oldin va raviydan keyin 4 tadan qofiya unsuri ishtirok etishi mumkin. Raviydan oldin keluvchi unsurlar: qayd — raviydan oldin kelgan harakatsiz undosh tovush ("balandqand" so'zlaridagi "n" tovushi); ridf — undosh raviydan oldin kelgan cho'ziq unli ("sha-har-sahar" so'zlarida "r" raviydan

oldingi "a" unlisi); ta'sis — raviydan oldin kelgan bir harakatli undoshdan ilgari keluvchi cho'ziq unli ("homil-qotil" so'zlaridagi "o" tovushi); daxil — raviy bilan ta'sis orasida keluvchi harakatli undosh ("zoyil-qoyil" so'zlaridagi "y" undoshi). Raviydan keyin keluvchi qofiya unsurlari ham 4 ta: vasl — raviyga vositali yoki vositasiz tirkalgan tovushlar ("ulfatim-suhbatim" so'zlaridagi "m" undoshi va "bulog'i-qulog'i" so'zlaridagi "i" unlisi); xuruj — vasldan so'ng takrorlanuvchi harakatsiz undosh yoki cho'ziq unli; mazid — xurujdan keyin keluvchi undosh yoki cho'ziq unli; noira —maziddan so'ng kelgan undosh va cho'ziq unlilar.

20-asr boshlaridan o'zbek she'riyatida barmoq tizimi yetakchilik qila boshladi. Natijada qofiya tarkibini nozik hamda asosli tahlil qilishga imkon beruvchi mumtoz qofiya nazariyasiga murojaat etish asta-sekin kamaydi. Bu holat qofiya haqida yangi — polirifma nazariyasini keltirib chiqardi. Ushbu nazariyaga ko'ra, qofiya tirkak tovushga asoslanadi. Tirkak tovush esa raviy singari injiq emas. Qofiyalanuvchi so'zlar tarkibidagi talaffuz usuli va o'rni jihatdan bir-biriga yaqin barcha tovushlar tirkak tovush bo'la oladi. polirifma nazariyasiga ko'ra, qofiyaning to'liq (to'q), noto'liq (och), sodda, murakkab, ochiq, yopiq, taxminiy kabi shakllari mavjud.

Qofiyalanuvchi so'zlarning uyg'unligi, miqdori, mazmuni, o'rni va fonetik tarkibiga qarab, qofiyaning zulqofiyatayn (qo'sh qofiyalilik), tarse'li (baytning har 2 misrasidagi barcha so'zlarning o'zaro ohangdosh, vazndosh bo'lib kelishi), tasviriy, kinoyaviy, kontrast, meta-forik, tajnisln kabi turlari farqlanadi va ularning har biri o'zbek she'riyatida ham muhim evfonik, semantik vazifa bajaradi. She'riy misraning boshlanishi yoki o'rtasida, oxi-rida kelishiga qarab esa qoiyaning anaforik, ichki va epiforik turlari farqlanadi.

O'zbek adabiyotida qofiyaning kelib chiqishida saj birinchi bosqich bo'ldi. Biroq saj va qofiya aynan bir narsa emas. A.Bertels va chex adabiyotshunosi Yan Rinka ham sajni qofiyaga o'xshasa-da, ular bir-biridan farqlanishini ko'rsatib o'tganlar. Bulardan ko'rinib turibdiki, saj va qofiya bir xil narsa emas. O'zbek poeziyasida qo'llanilib kelinayotgan aruz va barmoq sistemasidagi qofiya va uning

tabiati to'g'risida munozarali fikrlar yuzasidan bir qator fikrlar o'rtaga tashlandi. Chunonchi, ularning fikr va xulosalariga suyanadigan bo'lsak, o'zbek mumtoz poeziyasida ham dastlab arab-fors qofiya nazariyasi birdaniga mukammal tarzda qo'llanilgan, deyish qiyin. XI asr yozma yodgorliklarida xususan, "Qutadg'u bilig"da qofiya tarkibidagi udoshlarning mos tushishiga e'tibor bergan holda undoshlar orasida keluvchi unlilarning muvofiq bo'lishiga hamma vaqt ham e'tibor qaratilavermagan.

**Qofiya** – arabcha so'z bo'lib, "ergashuvchi, izidan boruvchi" degan ma'nolarni anglatib, o'zaro ohangdosh so'zlarning she'r misralarida tizimli bo'lib kelishidir.

O'zbek adabiyotshunosligida qofiya bo'yicha bir qator ilmiy – tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu ishlar ichida eng ahamiyatlisi filologiya fanlari doktori To'xta Boboyevning "She'r ilmi ta'limi" risolasidir. Unda she'r ilmi asoslari, xususan, qofiya mukammal tarzda tasniflab, misollar yordamida ilmiy asoslab berilgan.

Qofiya tarkibida o'zak va qo'shimchalarning ishtirokiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. Muqayyad qofiya (o'zak qofiya) – bunda qofiya so'z faqat o'zakdan iborat bo'ladi, ya'ni raviydan so'ng qo'shimcha kelmaydi.

2. Mutlaq qofiya – bunda qofiya so'z o'zak (negiz) va qo'shimchalardan tashkil topadi.

Bundan tashqari har bir qofiya tipi tarkibidagi tovushlar (ta'sis, ridf, qayd, daxil; vasl, xuruj, mazid, noyira) taqozosiga ko'ra ham bir necha turga bo'linadi. Bunday hodisa qofiya ilmida qofiya turlari deyiladi.

Muqayyad va mutlaq qofiya tiplarining har biri tarkibida bir qancha qofiya turlari mavjud bo'lib, ularning adadini aniq belgilab berish mushkul masala. Biz bu borada T.Boboyev va A.Hojjahmedovlarning ilmiy yondashuvlariga tayanamiz.

Mumtoz qofiya tarkibini 9 ta tovush tashkil qilib, 4 tasi (ta'sis, ridf,

daxil, qayd) raviydan oldin (o‘zak qofiya unsurlari), 4 tasi (vasl, xuruj, mazid, noyira) raviydan so‘ng (qo‘shimchali qofiya unsurlari) keladi. Raviyning o‘zi esa qofiyaning o‘q tomiri hisoblanadi. Qofiya turlari esa ana shu elementlarning o‘zaro ma’lum tartibda mujassamidan yuzaga keladi.

Qofiya turlaridan , xususan, mutlaq qofiya turlaridan Navoiy ijodida qo‘llanilishini misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

**1.Mutlaq-i mujarrad qofiya** – qo‘shimchali (mutlaq) yakka qofiya. Bunda qofiyaning o‘zagiga unli bilan boshlanuvchi bir yopiq bo‘g‘in (mahram-ing – hamdam-ing) yoki o‘zakka **a, i, o, e** (kun-i – tun-i) unlilaridan biri tirkaladi:

Boda tutsang, sarnigun aylarmen ani sipqor**ib**,

Lutf qilding, jonni andin, ani jondin qutqor**ib**.

“Gulruxi ra‘noqadim...” g‘azalidan.

Yorning chun ta‘bi poku xotiri ogoh**i** bor,

Yo‘l yarog‘in dog‘I topmas, ulki molu joh**i** bor.

“Badoe‘ ul- vasat”dan

**2. Ta‘sisli mutlaq qofiya.** Bu qofiya o‘zagida ta‘sis unsuri mavjud bo‘lib, qo‘shimchalardan biri bilan birikib keladi:

Gah-gahi yod ayla nadomat**ni** ham,

Qaysi nadomatki, qiyomat**ni** ham.

“Hayrat ul-abror”dan.

Oshiqliq ishi erur zab**un**luq,

Mehnat chahi ichra sarnig**un**luq.



“Layli va Majnun”dan.

**3. Ta’sis va daxilli mutlaq qofiya.** Bu xil qofiya o‘zagida ta’sis bilan daxil unsurlari bo‘lib, biror qo‘shimcha bilan birikib keladi. Ya’ni qo‘shimchali qofiyada raviydan oldin kelgan cho‘ziq unli va raviy orasida harakatli undosh keladi:

So`z aytsa ne qilay xitobin?

So`rsa seni ne beray javobin?

“Layli va Majnun”dan.

Ishq ahlig`a qullug`ung havasdur,

Qo`pqilki yoturg`a vat emasdur.

“Layli va Majnun”dan.

**4. Ridf-i mufradli mutlaq qofiya.** Bu xil qofiya o‘zagida ridf-I mufrad unsuri bo‘lib, qo‘shimchalardan biri bilan birikib keladi:

Bu ishq o`tig`a davomu bo`lg`ay?

Har kim tilasa ravomu bo`lg`ay?

“Layli va Majnun”dan.

**5. Ridf-i murakkabli mutlaq qofiya.** Bunda qo‘shimchali qofiya o‘zagida ridf-i murakkab unsuri bo‘ladi. Ya’ni raviydan oldin harakatli undosh tovush keladi:

E ishq g`arib, kimi yosen,

Bal oyinai jahonna mosen.

“Layli va Majnun”dan.

**6. Ridf-i asliyli mutlaq qofiya.** Bunday qofiya o`zagida asliy ridf bo`ladi va qo`shimcha bilan birikadi:

Sen agarchi bir ulusqa shohsen,  
Tengri yo`lunda, vale gumrohsen.

“Lison ut-tayr”dan.

**7. Qaydli mutlaq qofiya.** Bunday qofiya o`zagida qayd unsuri ishtirok etadi va unda qo`shimcha bilan bog`lanadi:

Xiradmandlig` keldi xursandliq,  
Qulaysiz tama noxiradmandliq.

“Saddi Iskandriy”dan.

**8. Xurujli mutlaq qofiya.** Bu xil qofiya qo`shimchasi tarkibida xuruj unsuri mavjud bo`ladi. Xuruj ( chiqish ). Qofiyada vasldan so`ng kelgan harakatsiz undosh yoki cho`ziq unli tovush. Xuruj bilan vasl undosh tovushlarda ifodalansa, ularning o`rtasida vazn talabi bilan qisqa unli tovush orttirilishi mumkin:

Qayu kimsakim ahli idrokdur,  
Anga jon fido qilsa ne bokdur.

“Saddi Iskandriy”dan.

**9. Ta`sis va xurujli mutlaq qofiya.** Bu xil qofiyaning o`zagida ta`sis va qo`shimchasida xuruj unsure bo`ladi:

Qaro rang elga toji torakdur,  
Kim bu rang ichradur, muborakdur.

“Sab`ai sayyor”dan.

**10. Ta`sis, daxil va xurujli mutlaq qofiya.** Bu xil qofiya o`zagida ta`sis, daxil va qo`shimchasida xuruj unsuri bo`ladi:

Ondin oyru oshiqu devonamen,  
Aqlu hushu sabrdin begonamen.

“Lison ut-tayr”dan.

**11. Ridf-i asliy va xurujli mutlaq qofiya.** Bu xil qofiya o`zagida ridf-i asliy va qo`shimchasida xuruj unsuri bo`lishi kerak:

Ko`rub umr tarixi mubhamlig`in,  
G`animat bil ashobi hamdamlig`in.

“Saddi Iskandriy”dan.

**12. Ridf-i murakkab va xurujli mutlaq qofiya.** Bu xil qofiya o`zagida ridf-i murakkab va qo`shimchasida xuruj unsuri bo`lishi lozim:

So`z oningdururkim , talabgoridur,  
Aningdur guharkim, xaridoridur.

**13. Qayd va xurujli mutlaq qofiya.** Bu xil qofiya o`zagida qayd va qo`shimchasida xuruj bo`lishi kerak:

Ey soda rafiq, benavomen,

Ishq ilgiga zoru muhtalomen.

“Layli va Majnun”dan.

**14. Ta`sis va mazidli mutlaq qofiya.** Bu xil qofiya o`zagida ta`sis va qo`shimchasida albatta mazid unsure bo`ladi:

Chu davron ishi bevafoqliqdurur,  
Fuzun shohlig`dan gadoliqdurur.

**15. Ta`sis daxil va mazidli mutlaq qofiya.** Bu xil qofiya o`zagida ta`sis, daxil va qo`shimchasida mazid bo`ladi. Mazid –orttirilgan. Qofiyada xurujdan keyin kelgan undosh va vaznda cho`ziq bo`lgan unli tovush maziddir. Masalan, “topmadim” - “yopmadim” qofiyasidagi “m”, “qarog`inda” – “so`rog`inda” qofiyasidagi “a” tovushi mazid hisoblanadi.

Daxil oraga kiruvchi, suqiluvchi degani. Qofiyada raviy bilan ta`sis o`rtasiga kiruvchi harakatli undosh tovush: “zolim”= “olim” qofiyasida “m” raviy, “l” daxildir.

Guliston zebi jamolingdin sening,  
Gul xijil ruxsori olingdin sening.

Baytda “jamolingdin”- “olingdin” so`zlari qofiya. “jamol”- “ol” so`zlari o`zak, -ingdin qo`shimcha. O`zakdagi “l” tovushi – raviy, “o” tovushi ridf-I asliy, qo`shimchadagi so`ngi “n” tovushi mazid, “d” tovushi –xuruj, “i” vositasiz vasldir.

**16. Ridf-i asliy va mazidli mutlaq qofiya.** Bu xil qofiyaning o`zagida ridf-i asliy va qo`shimchasida mazid unsuri bo`lishi mumkin:

Ro`zi uchun muncha fusunsozliq,  
Mansab uchun muncha dag`obozliq.

“Hayrat ul-abror”dan.

Baytdagi “fusunsozliq”-“dog`obozliq” so`zlari qofiy. Qofiya o`zagidagi “z” tovushi – raviy, “o” tovushi-ridf-i asliy va qo`shimchadagi so`nggi “q” tovushi maziddir.

O`zbek poeziyasida qo`llanilib kelinayotgan aruz va barmoq sistemasidagi qofiya va uning tabiati to`g`risida munozarali fikrlar yuzasidan bir qator fikrlar o`rtaga tashlandi. Chunonchi, ularning fikr va xulosalariga suyanadigan bo`lsak, o`zbek mumtoz poeziyasida ham dastlab arab-fors qofiya nazariyasi birdaniga mukammal tarzda qo`llanilgan, deyish qiyin. XI asr yozma yodgorliklarida xususan, “Qutadg`u bilik”da qofiya tarkibidagi udoshlarning mos tushishiga e`tibor bergan holda undoshlar orasida keluvchi unilarning muvofiq bo`lishiga hamma vaqt ham e`tibor qaratilavermagan. Alisher Navoiy va Bobur ijodlariga esa qofiya nazariyasi tobora mukammallashib borgan. Ular raviy va uning tovush elementlarini to`g`ri qo`llash bilan birga, o`zbek adabiyotida qofiya imkoniyatlarini kengaytirishga va yangi xususiyatlarini joriy etishga harakat qilganlar. Chunonchi, Alisher Navoiy qofiyada unilarni qo`llash masalasida tor imkoniyatdan chekinishni tavsiya etadi va cho`ziq unliga qisqa unlini ohangdosh qilish mumkinligi haqida “Muhokamat ul – lug`atayn” asarida shunday yozadi: “...aro lafzin “saro” va “daro” bila qofiya qilsa bo`lur...”. Bobur esa undosh tovushlardan ham qofiya kengligi mavjudligini yozib qoldirgan.

## XULOSA

Qofiya ko`pincha tasvir vositasi bo`lib kelib, she`rning badiiy jihatdan Yuksak bo`lishiga hissa qo`shadi, misralarni xushohang, musiqiy qiladi, radifsiz she`rlarda ritmik qatorlar oxirini ko`rsatadi. Qofiya adabiy janrlar (g`azal, qasida, ruboiy, tuyuq, qit`a, murabba`, musaddas, sonet...)ni vujudga keltirishda muhim rol o`ynaydi.

Qofiyaning yana bir vazifasi-she`r intonatsiyasini (ohangini) yuzaga keltirishga ko`maklashishdan iborat. She`rning poetik mazmuni, undagi so`zlar intonatsiyasi, ritmi, vazni va band tuzilishi bilan uzviy bog`liq holdagina qofiya o`z vazifasini o`tay oladi. She`rda ohangdoshlikni vujudga keltiruvchi qofiyalar ilmda “xushohang (evfonik) qofiyalar” deb yuritiladiki, qofiyaning bu xiliga aruziylar alohida e`tibor berishgan.

Ulug` o`zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonida:

Ham qofiyasi aning sitoti,

Ham barcha radifi aning oti

Deb yozar ekan, bu bilan dostonidagi qofiya va radiflar badiiy g`oya bilan chambarchas bog`liqligini ta`kidlaydi. Darhaqiqat, dostonidagi qofiya va radiflarni bir joyga to`plab mag`zi chaqib ko`riladigan bo`lsa, shoirning fikrida jon borligi aniq seziladi. Go`yo Qays va Laylining fojiali sevgisi, ularning motamsaro ruhiy kechinmalari, dard-hasratlari, qonli ko`z yoshlari qofiya va radiflarga sochilganday tuyuladi kishiga.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyev T “Adabiyotshunoslik asoslari”-T.”O’zbekiston” 2000 .
2. I.Sultonov “Adabiyot nazariyasi”-T “O’qituvchi” 2002
3. D.Quronov “ Adabiyotshunoslikka kirish”-T.2004
4. Adabiyotshunoslik nazariyasi ikki jildlik -T “Fan” 1978-1979
5. Adabiy tur va janrlar 2-jild Lirika -T ”Fan”.1992
6. B.Sarimsoqov “Badiiylik asoslari va mezonlari”-T.2004
7. A.Ulug’ov “Adabiyotshunoslikka kirish”-T.”Universitet” . 2000
8. Fitrat “Adabiyot qoidalari”
9. Boboev T. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent,1979.
10. Boboev T.She’r ilmi talimi . -T.: «O'qituvchi»,1996.